

BEHBUDIY QARASHLARIDA AN'ANAVIYLIK VA ZAMONAVIYLIK

Baratov Rashid¹

Abilov Xosilbek²

Toshkent davlat transport universiteti

KEYWORDS

drama, teatr, ilm-fan, taraqqiyot,
ma'rifat, isloh qilish,
jadidchilik, jurnal, madrasa,
sanoat, milliylik, savodli,
gazeta, ijtimoiy.

ABSTRACT

Behbudiy o'z davrining yirik ma'rifatparvarlari va jadidlar harakatining asoschilaridan biri bo'lib, uning ilm-fanga bo'lgan munosabati nihoyatda yuksak edi. U ilm va ma'rifatni millatning taraqqiyotiga erishishning eng muhim omili deb bilgan va hayotini o'z xalqini savodsizlik va qoloqlikdan olib chiqishga bag'ishlagan. U xalqni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish orqali milliy uyg'onish va taraqqiyotga erishishni orzu qilgan. Uning bu boradagi xizmatlari hozirgi zamonaviy O'zbekistonning ma'rifiy rivojida muhim o'rin tutadi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.15748131**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

KIRISH: XX-asrda Turkiston xalqlari orasida istiqlool uchun ma'rifiy jihardan rus mustamlakasiga qarshi harakatlar avj olgan. Ushbu harakat faollarini jadidlar deb atashgan. "Jadid" so'zining lug'aviy ma'nosi "Yangi usul" degan ma'noni anglatib, xalqni istiqloolga yitaklashning yangicha usul tarafdorlariga nisbatan ishlatilgan. Turkiston jadidchiligining yirik namoyondasi bo'lmish Mahmudxo'ja Buhbudiy 1875-yilda Samarqandda tavallud topgan. U zodagon tug'ilgan, otasi savdogar edi. Yoshligidan diniy va dunyoviy bilimlarni o'rgangan, o'z davrining ilg'or fikrlovchilaridan biri bo'lib voyaga yetdi. Arab, fors va rus tillarini yaxshi bilgan. Behbudiy 1913-yilda „Samarqand“ nomli gazeta nashrini boshlaydi. U o'zbek dramaturgiyasining asoschilaridan biri hisoblanadi. Uning „Padarkush“ (1919) dramasi o'zbek teatrining ilk namunalari-dan biridir. Behbudiy 1919-yilda Qozog'istonning Chimkent shahrida bosmachilar tomonidan nohaq qatl qilinadi.

Otasi Ahmad Yassaviy avlodidan. Otasining buvasi Niyozxo'janing asli kelib chiqishi urganchlik bo'li b, Samarqandga XVII asr oxirida, Amir Shohmurod hukmronlik davrida ko'chib kelgan[4.2022.12.15.-B23].

¹ Toshkent davlat transport universiteti dotsenti

² Toshkent davlat transport universiteti talabasi

Behbudiy ilm-fanga oshno bo'lishi. Behbudiy ilm-fanni millatining taraqqiyoti va ozodlikka erishishning yagona yo'li deb bilgan. Uning faoliyati Turkiston xalqlarining o'z zamonasiga mos bilimlar va tenologiyalarni o'zlashtirishiga katta turtki bo'lgan. Behbudiy ta'lim-ni isloh qilmasdan xalqni ma'rifatli va taraqqiyparvar qilish mumkin emasligini ta'kidlagan. U shunday degan edi: „Ilmsiz xalq - kuchsiz xalq. Ilm bizni jaholatdan chiqaradi, taraqqiyotga yetaklaydi”.

Behbudiyning „Padarkush” dramasi xususida adabiyotshunos olim Shuhrat Rizayev „Behbudiy Markaziy Osiyo ijodkorlari orasida birinchi milliy dramatik asar yaratdi. Ungacha mazkur hududda na turkiy na forsiy tilda drama janrida bironta asar yozilmagan edi”[2.1997.-B.4]- degan ta'rifni berib o'tadi.

Jadidchilik harakati. Mahmudxo'ja Behbudiy jaddidchilik harakatining tamal toshi bo'lgan maktab islohatiga qattiq kirishdi. Uning tashabbusi va g'ayrati bilan 1903-yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi (S.Siddiqov), Rajabamin (A.Shakuriy) qishloqlarida yangi maktablar tashkil qilindi. Adib ushbu maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. Ketma-ket uning “Risolayi asbobi savod” (1904), “Risolayi jug'rofiyayi umroniy” (1905), “Risolayi jug'rofiyayi Rusiy” (1905), “Kitoblar atfol” (1908), “Amaliyoti islom”(1908), “Tarixi islom” (1909) kabi kitoblari paydo bo'ladi[3.2022.-B11-12].

Mahmudxo'ja Behbudiyning barcha faoliyati faqat o'z xalqining manfaati uchun edi, u o'z farzandlarini savodli odamlar sifatida tarbiyalash uchun kurashdi, shunda xalqi baxtli yashashi mumkin edi. U 1914- yilda yozilgan “Do'stlarga ariza” nomli maqolasida shunday yozgan edi: “Islom shu qadar diniy matn va taraqqiyotga moyil dinki, inson qancha ko'p bilim olsa, shuncha islom aqidalari kuchayadi”. Qancha mol-mulkingiz bor bo'lsa soting va farzandlaringizni o'qiting[1.1999.-B.7].

Behbudiy yangi usul maktablarining asoschilaridan biri va jadidchilik harakatining yirik namoyondasi bo'lib, 19-asr oxiri va 20-asr boshlarida Turkiston o'kasida ta'lim tizimini isloh qilishda katta hissa qo'shgan. Birinchi yangi usul maktablari 1880-yillarda ochilgan bo'lsada, Behbudiy o'z faoliyati bilan bu harakatni 20-asr boshlarida jadallashgan. U o'z mablag'laridan yangi usul maktablarini qurgan. Maktablari uchun darsliklar va qo'llanmalar yozgan.

Muhammad Sodiqxo'ja o'g'li Behbudiy ilm-fan targ'iboti sohasida o'z davri-ning yirik jadidchisi va islohatchisi bo'lib, uning faoliyati va ilmiy-tarkibiy ishlari katta ahamiyatga ega. Behbudiy ilm-fan targ'iboti va tarqatilishi bir nechta muhim yo'nalishlarda faoliyat yuritgan. Behbudiy ilm-fan va ta'limni targ'ib qilishda matbuotni samarali vosita sifatida foydalangan. U „Tajalliy” nomli jurnalni nashr etgan va bu orqali ilm-fan, madaniyat, siyosat va ijtimoiy masalalarda o'z qarashlarini jamoatchilikka yetkazgan. Behbudiy ilm-fan targ'iboti sohasida o'z davrining yirik namoyondasi bo'lgan va yangi ilmiy fikrlar, ilm-fan, ta'lim va madaniyat sohasidagi islohatlarini amalga oshirgan. U ilm-fanni xalq orasida tuman va qishloq aholisi uchun zarur hisoblagan.

Behbudiy Turkistondagi jadidchilik harakatining rahbaridir. U jadidlar dasturining asoslarini tuzdi va matbuotda e'lon qildi. Turkistonning istiqbolga erishish yo'lini ko'rsatishga intilganbu yo'riq keng xalq ommasi, ayniqsa, taraqqiyparvar yoshlar

dunyoqarashining shakllanishida katta rol o'ynaydi. "Biz jonsizlik ko'rsatganda", -degan edi u 1917-yilning yozida yozilgan maqolasida, -muxtoriyat agarchi yuz sana so'ngra bo'lsun, bizga berilmaydur. Azbaski, "Haq olinur, berilmas"[5.1999.].

Yangi usul maktablari. Turkistonda yangi usul (jadid) maktablarini tashkil etishda Rossiya musulmon maktablarining buyuk islohotchisi Ismoil Gaspirinskiy g'oyasi asos bo'ldi. U Bog'chasaroyda eski qiroat o'qish usulidan farq qiluvchi, darslarni yengil o'zlashtirish usulida maktab ochib, o'zi unda dars bergan, darsliklar yozgan. Uning bu yangi usul maktabi va Chorizmning mustamlakachilik siyosatini fosh qiluvchi asarlari Turkiston jadidlari dunyo qarashiga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazdi, Turkistonda ham yangi usul maktablarining ochilishiga turtki bo'ldi.

1917-yil aprel voqealaridan keyin Ayniy Buxorodan Samarqandga ko'chib ketadi. Bir muddat siyosatdan chekinib, ilmiy-adabiy faoliyat bilan shug'ullanadi. U aynan Behbudiyning sa'y-harakati bilan tashkil etilgan "Zarafshon", "Mehnatkashlar tovushi", "Hurriyat", "Shu'lai inqilob", "Tayoq", "Bolalar yo'ldoshi" kabi gazeta-jurnallarda maqolalar chop ettiradi. "Mehnatkashlar tovushi" gazetasining tarjima va tahrir ishlarida bir muddat Saidrizo Alizoda, Muhammadjon Yusufiy, Qori Muhammadrahim Toji, Sadridin Ayniy afandilar xizmat etdilar. Bularning ichida birinchi darajada uzun muddat ishlagan kishi, shubhasiz, Ayniy afandi edi", deya shohidlik beradi Hoji Muin[6.2005.-B.123].

Behbudiy 1913-yildan boshlab matbuot ishlari bilan shug'ullangan. Shu yilning aprelida "Samarqand" gazetasiga asos solgan. Gazeta ikki tilda: o'zbek va tojik tillarida, haftada ikkinchi marta chop etilgan. Dastlab ikki sahifada bo'lgan gazeta 3-8-sonlarida sahifalari soni to'rttaga yetkazilgan. 400-600 nusxada chop etilgan. 45-soni chiqqach, chor hukumatining tazyiqi hamda moddiy qiyinchiliklar tufayli nashr to'xtagan[7.1990.-B.64]. "Turkiston" gazetasida keltirilgan "Samarqandda Behbudiy kutubxonasi" maqolasida keltirilishicha, kutubxonadan mas'ul ishchilar ham xabar olmay qo'ygan va 1500 dan ortiq kitoblar (659 dona musulmoncha, 923 dona ruscha) ahvoli noma'lumligicha qolgan[8.2022.05.28.-B.70].

Xususan, uning "Oyina" jurnalining ilk sonida chop qilingan "Ikki emas, to'rt til lozim" maqolasida turkistonliklar zamon bilan hamnafas bo'lishi, zamona ilmlaridan, fikrlaridan bahramand bo'lishi uchun "turkiy, forsiy, arabiy va rusiy" tillarini bilishi, ularda bemalol muloqot qilish darajasiga etishishi lozimligi ta'kidlanadi. Behbudiy bu maqolada "turkiy" til deganda mahalliy xalqning aksariyati so'zlashadigan "o'zbakiy" tilni nazarda tutadi. Unga ko'ra, to'rt tilning o'rganishga sabablar quyidagilardan iborat:

- 1) "turkiy, ya'ni o'zbakiy" – Turkiston xalqining aksariyati so'zlashadigan til;
- 2) "forsiy" – "madrasa va udabo tilidir. Bu kungacha Turkistonni har tarafindagi eski va yangi maktablarida forsiy nazm va nasr kitoblari ta'lim berilib kelgandur";
- 3) "arabiy" – madrasalarda o'qitiladigan barcha shar'iy kitoblar ushbu tilda;
- 4) "rusiy" – "zamon tijorat ishi, sanoat va mamlakat ishlari, hatto dini islom va millatga xizmat" qilishga yararlik zamona ilmini o'rganish uchun.

Ilm-fan targ'iboti. U 1914-yilda yana Turkiya, Misrga borib, u yerdan muhim kitoblar, o'quv qo'llanmalarini olib keladi, yangi usuldagi maktab dasturi ustida ishlashga kirishadi.

Biroq, u turli to'siqlarga uchrab "jadidlar rahnamosi", "dahriy" deb e'lon qilinadi. Shunga qaramay u tatar mutaffakiri Ismoil Gaspiralining ma'rifatchilik borasidagi ta'limotini qo'llab quvvatlab, o'z o'lkasiga ham shunday ishlarni amalga oshirishga kirishadi va ko'p o'tmay ma'rifatparvar sifatida o'z xalqi hurmatiga sazovor bo'ladi. U bir qator Sharq va G'arb tillari bilan yuksak madaniyat sohibi bo'lishi bilan birga, umuminsoniy madaniyatning tolmas targ'ibotchisi ham bo'lgan.

Muallif Turkiston jadidlarining peshvosini bunday ta'riflaydi: "Behbudiy hazratlari ko'rinishda g'oyat mahobatlik va salobatlik edi. Ahvolig'a voqif bo'lmag'an kimsa, mutakabbur deb gumon qilur edi. Lekin, haqiqatda muloyim suhbatlik, takallufsiz bir odam edi, o'z moli haqida bo'lsin, xalq moli bo'lsin, iqtisodg'a ko'p rioya qilar va ijtimoiy ahvolimizning tuzalishi uchun iqtisodg'a rioya qilishni birinchi shartlardan bilar edi. Shuning uchun to'y va azalarg'a bo'laturg'on isroflarni o'zi butun tark qilg'on va so'zig'a quloq solaturg'onlarni ham tark qildirg'on edi"[9.1922].

Behbudiy til o'rganishga sabab bo'ladigan omillarni ko'rsatar ekan, turkiy va forsiy mahalliy xalq uchun ikkisi birday ona tili bo'lgani uchun "bizg'a saodat" ekani va ushbu tillarni har bir turkistonlik "tahsilsiz" ham yaxshi bilishini ta'kidlaydi. Ushbu tilni mukammal bilganlar forschada bitilgan "Firdavsiy, Bedil, Sa'diy, 'Masnaviy'dan qanday lazzat olsa", buning barobarida turkiyda yozilgan "Fuzuliy, Navoiy, Boqiy, Somiy, Abdulhaq Homid, Akrambek, Sanoyi, Nobiy, Nojiylardan, yana To'lstoy, Jul Vern va ulamoyi zamoniy asarini turkiy tarjimasidan" shunchalik bahramad bo'lishi mumkinligiga urg'u beradi.

Albatta, Behbudiyning xalq o'rtasida ortib borayotgan obro'-e'tibori nafaqat amirlik rahbarlari, balki bolsheviklarining ham reja va niyatlariga zid edi. 1919-yilning 25-martida Behbudiy ular chaquvi bilan Shahrisabzda qo'lga olinib, sirli bir tusda Qarshida Said Olimxon farmoni bilan qatl qilindi. Uning qatli haqidagi xabar o'sha paytdagi poytaxt Samarqandga rosa bir yildan keyin xabar qilinadi. 1920-yilning aprelida butun Turkiston motam tutdi.

Jadidlar yetakchisi Mahmudx'ja Behbudiy o'z chiqishida syezdning huquqiy jihatdan qonuniyligi haqida shunday degandi "Syezd qarorlari shuning uchun ham katta mavqeyda sazovorki, unda Turkistonni ovro'palik aholisi ham qatnashmoqda"[10.2011.-B19].

"Turkiston bolalarini ilimsiz qoymanglar! Sizlarga vasiyat qilaman! Hammaga ozodlik yo'lini ko'rsatinglar[11.2002]!" degan edi Behbudiy.

Ulug' mutafakkirning xalqimiz oldidagi xizmatlari e'tiborsiz qolmagan, albatta. Qarshi shahri 1926-1937 yillarda Behbudiy nomi bilan atalgan. 1977-yili allomaning "Saylanma" asarlari chop etildi. Asarlari darslik va qo'llanmalarga kiritilib, Toshkent va Samarqand shahridagi maktab, ko'cha va mahallalar uning nomiga qo'yildi. Buyuk ma'rifatparvar sharafiga 2006-yil Samarqand shahrida yodgorlik o'rnatilgan. Hattoki, Tojikiston Respublikasining Xo'jand shahridagi gimnaziya Behbudiy nomi bilan ataladi. 2020-yil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni arafasida Behbudiy hayotiga bag'ishlangan film premyerasi bo'lib o'tdi. Xozirgi kunda alloma qoldirgan boy va rang-barang adabiy, madaniy va ma'rifiy meros o'z xalqining istiqboliga xizmat etmoqda.

XULOSA: Xulosa qilib aytganda, Behbudiy yoshlarni ilm o'rganishga chorlaydi. Ilmli bo'libgi xalqni qoloqlikdan olib chiqish mumkinligini aytgan va jadidchilik maktablarini ochib Turkiston bolalarini ilm olishida o'z hissasini qo'shgan. Behbudiy bugungi kun jamiyatini har tomonlama rivojlantirish, milliy va ma'naviy qadiriylatlarni asrab qolish hamda ularni zamonaviy taraqqiyotga moslash, yoshlarni vatanparvarlik, ma'rifatparvarlik ruhida tarbiyalashga chaqirgan.

REFERENCES:

1. Mirziyoyev. Sh.M. Erkin va farovan, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Global dunyoda ilm- fan va ta'limdagi innovatsion rivojlanishning zamonaviy trendlari 15-dekabr,2022-yil.T.:O'zbekiston. B.23.
2. Shuhrat Rizayev. Jadid dramasi. Risola va matnlar. „Sharq“ nashiryoti, T.: 1997.B.4.
3. Abdirashidov Z. Mahmudxo'ja Behbudiy. Yoshlar nashiryot uyi. T., 2022-yil. B.11-12.
4. D.Alimova, A.Rashidova. Mahmudxo'ja Behbudiy va uning tarixiy tafakuri. Toshkent: Akademiya nashiryoti, 1999-yil. B.7.
5. Mahmudxo'ja Behbudiy.Tanlangan asarlar. Tuzatilgan va to'dirilgan 2-nashri.T., Manaviyat.1999-yil.
6. Hoji Muin. Samarqand matbuotining tarixi. Tanlangan asarlar. Ma'naviyat. T., 2005-yil. B.123.
7. Begali Kosimov."Karvonboshi".Yoshlik. 1990-yil. B.64.
8. Avazova M, Xolmamatov P.,Birinchi o'zbek dramasi yaratilishiga sabab bo'lgan kutubxona tarixiga nazar. "Yangi O'zbekistonning umidli yoshlari" 1(4)-son 2022-yil 28-may. B.70.
9. Sadriddin Ayniy. Behbudiy hazratlari to'g'risida xotiralarim. Zarafshon.1922-yil.
10. Jo'rayev N. Karimov Sh. "o'zbekiston tarixi ". T.: "Sharq" nashiryoti. 2011-yil. B.19.
11. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. T., 2002-yil.